

CHAKANA SAVDO KORXONALARI TA'MINOT TIZIMIDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abduxalilova Laylo To'xtasinovna

TDIU, "Marketing" kafedrası professori, i.f.n.

Annotatsiya

Mazkur maqolada chakana savdo korxonalarini uchun tovarlarni yetkazib berishni tashkil etish hamda ushbu jarayonning texnologik jihatlari kompleks tarzda yoritilgan. Tadqiqotda tovar yetkazib berish tizimining asosiy bosqichlari – buyurtmalarni shakllantirish, ombor jarayonlari, transport-logistika operatsiyalari va savdo nuqtalariga taqsimlash mexanizmlari – tahlil qilindi. Shuningdek, chakana savdoda yetkazib berish jarayonining samaradorligini oshirishda zamonaviy logistika texnologiyalari, axborot tizimlari va raqamli yechimlarning roli ko'rib chiqilgan. Maqolada tovar yetkazib berishni to'g'ri tashkil etish chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishi, xarajatlarni kamaytirishi va iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari chakana savdo korxonalarini faoliyatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: chakana savdo, tovarlarni yetkazib berish, logistika, ta'minot zanjiri, savdo texnologiyalari, ombor xo'jaligi, transport-logistika, raqamli logistika, tovar harakati, samaradorlik.

Аннотация

В данной статье комплексно освещается организация поставок товаров для предприятий розничной торговли и технологические аспекты этого процесса. В исследовании анализируются основные этапы системы доставки товаров: формирование заказов, складские процессы, транспортно-логистические операции и механизмы распределения по торговым точкам. Также будет рассмотрена роль современных логистических технологий, информационных систем и цифровых решений в повышении эффективности процесса доставки в розничной торговле. В статье на научной основе освещается, как правильная организация поставок товаров повышает конкурентоспособность предприятий розничной торговли, снижает затраты и улучшает качество услуг, предоставляемых потребителям. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования деятельности предприятий розничной торговли.

Ключевые слова: розничная торговля, доставка товаров, логистика, цепочка поставок, технологии продаж, складское хозяйство, транспортная логистика, цифровая логистика, товародвижение, эффективность.

Abstract

This article comprehensively covers the organization of goods delivery for retail enterprises and the technological aspects of this process. The study analyzes the main stages of the product delivery system – order formation, warehouse processes, transport and logistics operations, and distribution mechanisms to retail outlets. The role of modern logistics technologies, information systems, and digital solutions in increasing

the efficiency of the retail delivery process will also be considered. The article scientifically substantiates that the proper organization of goods delivery increases the competitiveness of retail enterprises, reduces costs, and improves the quality of services provided to consumers. The research results have practical significance in improving the activities of retail trade enterprises.

Keywords: retail, goods delivery, logistics, supply chain, sales technologies, warehouse management, transport and logistics, digital logistics, goods movement, efficiency.

KIRISH

Globalashuvning chuqurlashuvi sharoitida chakana savdo korxonalarini uchun tovarlarni yetkazib berishni tashkil etish va uning texnologiyasi masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Aholi iste'mol talabining xilma-xilligi, xaridlar tezligi va xizmat ko'rsatish sifatiga bo'lgan talabning ortib borishi chakana savdo tizimida tovarlarni o'z vaqtida, uzluksiz va samarali yetkazib berishni strategik vazifaga aylantirmoqda. Ayniqsa, raqobat kuchaygan bozor sharoitida tovar yetkazib berish jarayonidagi har qanday uzilish yoki samarasizlik savdo korxonalarining moliyaviy natijalariga va imijiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ichki savdo va xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda chakana savdo tarmoqlarining kengayishi, supermarket va minimarketlar sonining oshishi, shuningdek, elektron savdo shakllarining rivojlanishi tovarlarni yetkazib berish tizimiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Endilikda chakana savdo korxonalarini faqat mahsulot sotish bilan cheklanib qolmay, balki tovarlarni tezkor yetkazib berish, zaxiralarni optimal boshqarish va logistika xarajatlarini kamaytirish orqali iste'molchi ehtiyojini maksimal darajada qondirishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, yetkazib berishni tashkil etish texnologiyasini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Chakana savdo korxonalarida tovar yetkazib berish jarayoni murakkab logistika tizimi bo'lib, u buyurtmalarni rejalashtirish, ombor operatsiyalari, transport-logistika xizmatlari va savdo nuqtalarida tovarlarni joylashtirish kabi o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlardan birortasida yo'l qo'yilgan kamchilik butun savdo jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab chakana savdo korxonalarida yetkazib berish jarayonlari eskirgan usullar asosida tashkil etilgan bo'lib, bu ortiqcha zaxiralar, kechikishlar va qo'shimcha xarajatlarga olib kelmoqda. Shuning uchun zamonaviy yetkazib berish texnologiyalarini joriy etish dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda chakana savdo tarmog'i tez rivojlanayotgan va transformatsiyalanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Jahon chakana savdo logistika bozori 2024-yilda 323,37 milliard AQSh dollari qiymatiga erishdi va 2033-yilgacha yillik o'rtacha 12,4 foiz o'sish sur'ati bilan 925,97 milliard dollargacha yetishi prognoz qilinmoqda (Straits Research, 2024). Elektron tijorat rivojlanishi, savdo strategiyalarining kengayishi va mijozlar talablarining oshishi logistika tizimlariga yangicha talablar qo'yimoqda.

O‘zbekistonda ushbu masala alohida ahamiyatga ega. 2024-yilda mamlakatda chakana savdo aylanmasi 10,8 foizga o‘sdi va iqtisodiy faol aholining qariyb 10 foizini ish bilan ta‘minladi (Stat.uz, 2024). Biroq, jahon amaliyoti bilan solishtirganda, samaradorlik darajasi ancha past bo‘lib, logistika xarajatlari mahsulot narxining 30–40 foizini tashkil etgan. Bu chakana savdo korxonalarida tovarlarni yetkazib berish tizimlarini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Hozirgi paytda chakana savdo korxonalarida bir qator jiddiy muammolarga duch kelmoqda, ya‘ni yetkazib berish xarajatlarining yuqoriligi, ombor zaxiralarini boshqarishda qiyinchiliklar, yetkazib beruvchilar bilan muvofiqlashtirish muammolari va tez o‘zgaruvchan bozor talablariga moslashishda cheklovlar mavjud. Shu bilan birga, elektron tijorat rivojlanishi natijasida 2023-yilda jahon bo‘yicha chakana savdoning 19,1 foizi elektron tijorat hissasiga to‘g‘ri kelgani yangi yondashuv va texnologiyalarni talab etmoqda (Statista).

Ushbu tadqiqot chakana savdo korxonalarida tovarlarni yetkazib berish tizimlarini takomillashtirishga, xalqaro tajriba va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot dolzarbligi yuqori texnologiyali logistika yechimlarini joriy etish orqali xarajatlarni kamaytirish, yetkazib berish tezligini oshirish va mijozlar qoniqlash darajasini yaxshilash imkoniyatlari bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kembro omborlarni avtomatlashtirishning strategik ahamiyatini ta‘kidlab, omborlar strategik ahamiyatga ega texnologiyalar bilan boyitilgan ishlab chiqarish fabrikalariga aylanganini qayd etadi. Ularning ko‘p tarmoqli tadqiqoti chakana savdo korxonalarida avtomatlashtirilgan ombor tizimlarini (AWS) joriy etishda operatsion omillar bilan bir qatorda strategik omillarning ham hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqobatbardosh ustuvorliklar va AWSni baholash jihatlari investitsiya qarorlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Boisen zamonaviy omborlarning strategik rolini ta‘kidlab, ularning oddiy saqlash joylaridan mijozlar talabini qondirishda muhim rol o‘ynaydigan murakkab operatsion markazlarga aylanganini qayd etadi. Elektron tijorat va marketingning rivojlanishi katta mahsulot assortimenti, tezroq va moslashuvchan yetkazib berish hamda buyurtma xususiyatlarining xilma-xilligi kabi yangi talablarni keltirib chiqardi.

Gil-Saura va boshqalar uyga yetkazib berishda qadoqlash logistikasining raqobat ustunliklarini ta‘minlashdagi rolini o‘rganib, barqaror qadoqlash logistikasi innovatsiyalari elektron tijorat samaradorligini oshirishi va barqarorlikni ta‘minlashi mumkinligini aniqladi. Resurs ustunligi nazariyasiga asoslanib, ular to‘rtta tadqiqot taklifini taqdim etib, barqaror biznes modellari riskni kamaytirishi, raqobat ustunligini ta‘minlashi va yuqori xizmat orqali qiymat qo‘shish hisobiga bozor ulushini oshirishi mumkinligini ko‘rsatdilar.

Bezdetkin onlayn savdo logistikasida raqamlashtirish va avtomatlashtirish zarurligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, xaridorlar barcha bosqichlarda qulaylikni kutadi – tez va o‘z vaqtida yetkazib berish hamda oddiy qaytarish tizimini. Logistlar uchun

“oxirgi mil”da tezlik birinchi o‘ringa chiqadi, shuning uchun raqamlashtirish va avtomatlashtirish logistika jarayonlarining samaradorligini saqlab qolishning yagona yo‘li hisoblanadi.

Mavlyudov Rossiya logistikasining to‘rtta asosiy yo‘nalishini belgilaydi: import o‘rnini bosish, Sharqqa yo‘naltirilganlik, jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish. U WMS (Warehouse Management System) tizimlarining ahamiyatini alohida ta’kidlab, ularning ERP tizimlari bilan integratsiyasi barcha biznes jarayonlarini samarali boshqarish imkonini berishini qayd etadi. 2024-yilda avtomatlashtirilgan va robotlashtirilgan yechimlarning keng ko‘lamda joriy etilishi ijobiy natijalar berganini ko‘rsatadi.

Nazarov 2024-yilning birinchi besh oyida Moskvada yuk tashish talabining 13,2 foizga kamayganini ta’kidlaydi. Bunda tezlashayotgan inflyatsiya va Markaziy bankning yuqori asosiy stavkasi muhim rol o‘ynagan. Tovarlar narxining, shuningdek, kvartiralar, ipoteka va kreditlar qiymatining oshishi mijozlarni tejamkorlik siyosatiga o‘tishga majbur qilgani qayd etiladi.

Xudoyberdiyev chakana savdo korxonalarida tovar yetkazib berish jarayonining texnologik bosqichlarini – buyurtma qabul qilish, saralash, qadoqlash, transportirovka va savdo nuqtasiga joylashtirish jarayonlarini – tizimli ravishda yoritadi. Tadqiqotda texnologik jarayonlarning uzviyligi va standartlashtirilishi savdo xizmatlari sifatini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi.

Usmonov ichki chakana bozor sharoitida yetkazib berish zanjirining barqarorligini ta’minlash muammolarini o‘rganadi. Tadqiqotda yetkazib berishdagi uzilishlar, transport-logistika infratuzilmasi va mavsumiy talab o‘zgarishlarining chakana savdoga ta’siri tahlil qilingan. Muallif yetkazib berishni tashkil etishda moslashuvchan logistika texnologiyalarini qo‘llash zarurligini ilmiy asoslaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chakana savdo logistikasida uchta asosiy yo‘nalish ustunlik qilmoqda: omborlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish, yetkazib berishni optimallashtirish hamda barqaror va mijozga yo‘naltirilgan yechimlarni joriy etish. O‘zbekiston kontekstida ushbu yo‘nalishlar mahalliy xususiyatlar va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda moslashtirilishi zarur.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda statistik tahlil, ya’ni rasmiy raqamli ma’lumotlar asosida chakana savdo hajmi, korxonalar soni va yetkazib berish samaradorligi o‘rganildi. Shu bilan birga, taqqoslash va solishtirish usullari orqali yirik va kichik savdo subyektlarining yetkazib berish jarayonlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini baholashda logistika indikatorlari va zamonaviy texnologiyalar samaradorligi asos sifatida qo‘llandi. Natijada tadqiqot O‘zbekiston chakana savdo tizimida tovarlarni yetkazib berishning samarali mexanizmlarini aniqlash va logistika jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana savdoda logistika jarayonlarini raqamlashtirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalariga

asoslangan boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan omborlar, shtrix-kod va RFID texnologiyalari tovarlarni yetkazib berish jarayonining aniqligi va tezligini sezilarli darajada oshirmoqda. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun yetkazib berishni tashkil etishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliyotga mos texnologik yechimlarni ishlab chiqish talab etiladi. Shu jihatdan mazkur mavzuning ilmiy tadqiq etilishi zamonaviy talablar bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, chakana savdo korxonalarida uchun tovarlarni yetkazib berishni takomillashtirish aholining ijtimoiy farovonligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tovarlarining savdo nuqtalariga o'z vaqtida yetib kelishi narxlar barqarorligini ta'minlash, sun'iy taqchilikning oldini olish va iste'molchilarning kundalik ehtiyojlarini uzluksiz qondirish imkonini beradi. Bu esa savdo tizimining barqaror ishlashiga va ichki bozorning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, chakana savdo korxonalarida tovarlarni yetkazib berish jarayoni ko'p hollarda bir-biri bilan yetarli darajada muvofiqlashtirilmagan bosqichlardan iborat. Buyurtmalarni shakllantirish, ombor zaxiralarini boshqarish va transport-logistika xizmatlari o'rtasidagi axborot almashinuvi sust bo'lgani sababli yetkazib berishda kechikishlar va ortiqcha zaxiralar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta chakana savdo korxonalarida logistika jarayonlarining markazlashmaganligi umumiy xarajatlarning oshishiga olib kelmoqda.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, chakana savdo tarmog'ining kengayishi yetkazib berish tizimi uchun dolzarb logistika yechimlarini joriy etishni talab etadi. Yirik korxonalar tomonidan yetkazib berish hajmining oshishi, ularning umumiy aylanmadagi ulushi sezilarli darajada ortib, 2025-yilning birinchi o'n oyida yirik korxonalar 63,7 trillion so'mlik tovar aylanmasini ta'minlagani bilan izohlanadi, bu ko'rsatkich 16,8 foizga o'sishni tashkil etdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlar esa chakana savdo aylanmasi tarkibida 292,9 trillion so'mlik yetkazib berishni amalga oshirgan bo'lib, ularning o'sishi ham ijobiy bo'lib, 9,0 foizni tashkil etdi. Bu raqamlar chakana savdo yetkazib berish tizimida turli o'lchamdagi korxonalar uchun moslashtirilgan logistika texnologiyalarini qo'llash zaruriyatini ochib beradi.

Tahlil jarayonida yetkazib berish texnologiyalarining eskirganligi muhim muammo sifatida aniqlandi. Ombor xo'jaligida qo'lda hisob yuritish, transport marshrutlarini oldindan rejalashtirmaslik va real vaqt rejimida nazorat mexanizmlarining yo'qligi tovarlar aylanish tezligini sekinlashtirmoqda. Natijada savdo nuqtalarida ayrim tovarlar yetishmovchiligi yuzaga kelib, bu iste'molchilar talabini to'liq qondira olmaslikka sabab bo'lmoqda.

Biroq zamonaviy logistika va axborot texnologiyalarini joriy etgan chakana savdo korxonalarida yetkazib berish samaradorligi sezilarli darajada oshgan. Avtomatlashtirilgan ombor tizimlari, elektron buyurtmalar va shtrix-kodlash texnologiyalaridan foydalanish tovarlarni qabul qilish, saralash va taqsimlash jarayonlarini tezlashtirgan. Bunday korxonalarda zaxiralarni boshqarish aniqroq yo'lga qo'yilib, ortiqcha zaxiralar qisqargan va logistika xarajatlari kamaygan. Jahon chakana savdo logistikasi bozori eksponent o'sishni boshdan kechirmoqda. Quyidagi jadvalda bozorning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan (1-jadval):

1-jadval.
Jahon chakana savdo logistikasi bozori dinamikasi¹

Ko'rsatkich	2023-y.	2024-y.	2025-y. (prognoz)	2033-y. (prognoz)	CAGR (foizda)
Bozor hajmi (mlrd. AQSh dollari)	296,2	323,37	363,47	925,97	12,4
Elektron tijorat ulushi (%)	18,2	19,1	20,2	24,8	-
Logistika xarajatlari ulushi (%)	41	42	43	45	-

CAGR- Compound Annual Growth Rate- Yillik o'rtacha tarkibiy o'sish sur'ati

Zamonaviy chakana savdo logistikasida quyidagi texnologik yechimlar keng qo'llanilmoqda:

Birinchidan, integratsiyalashgan boshqaruv axborot tizimlari. ERP, SCM va WMS tizimlarining o'zaro integratsiyasi buyurtmalarni qabul qilishdan tortib, ombor zaxiralarini boshqarish va yakuniy yetkazib berishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni yagona raqamli muhitda muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu yetkazib berish jarayonlarining shaffofligini oshiradi hamda rejalashtirishdagi xatoliklarni kamaytiradi.

Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan va robotlashtirilgan ombor texnologiyalari. AS/RS tizimlari, robot-manipulyatorlar va konveyer liniyalari yuqori aylanish tezligiga ega chakana savdo tarmoqlarida operatsion samaradorlikni oshirib, buyurtmalarni qayta ishlash vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.

Uchinchidan, identifikatsiya va kuzatuv texnologiyalari. Shtrix-kod, QR-kod va RFID yechimlari tovarlarning harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish, yo'qotishlar va noto'g'ri hisob-kitoblarning oldini olish hamda inventarizatsiya jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, transport-logistika jarayonlarini optimallashtirish texnologiyalari. GPS-monitoring, marshrutlarni avtomatik rejalashtirish va real vaqt rejimidagi transport boshqaruvi yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, yoqilg'i sarfini kamaytirish va logistika xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Beshinchidan, raqamli platformalar va elektron buyurtma tizimlari. B2B va B2C platformalari, mobil ilovalar va elektron savdo tizimlari chakana savdo korxonalariga mijozlar bilan tezkor aloqani ta'minlash, talabni prognozlash va yetkazib berish jarayonlarini moslashuvchan tashkil etish imkonini yaratadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur texnologik yechimlarni kompleks va tizimli joriy etish chakana savdo korxonalarida tovarlarni yetkazib berish samaradorligini oshiradi, logistika xarajatlarini kamaytiradi hamda iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu sababli, chakana savdo logistikasini modernizatsiyalash jarayonida innovatsion va raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi (2-jadval).

¹ Manba: Straits Research (2024), Statista (2024) saytlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadval.
Chakana savdo logistikasida texnologiyalar joriy etilishi¹

Texnologiya	Joriy etilish darajasi (foizda)	Samaradorlik o'rtacha o'sishi (foizda)	Investitsiyalarning qoplanish darajasi (yil)
Sun'iy intellekt va robototexnika	60	35-45	2-3
WMS (Ombor boshqaruvi)	73	25-35	1,5-2
IoT va kuzatuv tizimlari	56	20-30	2-2,5
Avtomatlashtirilgan saralash	48	30-40	2,5-3
Blockchain	15	15-25	3-4

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirish va raqamlashtirish logistika xarajatlarini 20-30% gacha kamaytirishi mumkin. Xususan, AI va robotika yechimlarining joriy etilishi omborxonalarda samaradorlikni 35-45 foizga oshiradi. Biroq, investitsiyalarning qaytish muddati 2-3 yilni tashkil etadi, bu esa kichik va o'rta biznes uchun muammo tug'dirishi mumkin (3-jadval).

3-jadval.
O'zbekiston chakana savdo aylanmasi²

Ko'rsatkich	Davr	Qiymat (mlrd so'm)	Oldingi yilga nisbatan o'sish, foizda
Chakana savdo aylanmasi	Yan–Mar 2024	72528,2	9,3
Chakana savdo aylanmasi	Yan–Iyun 2024	154620	8,4
Chakana savdo aylanmasi	Yan–Okt 2025	356606	10,3
Ulgurji savdo aylanmasi	Yan–Okt 2025	393900	12,2
Chakana savdo (9 oy)	Yan–Sen 2025	316378,5	11

2024–2025-yillar davomida O'zbekiston chakana savdo aylanmasi doimiy o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2025-yilda yanvar–oktyabr davrida jami 356 606 mlrd so'mga yetdi, bu o'tgan yilga nisbatan 10,3% o'sishni anglatadi. Bu chakana savdo faoliyatining yetkazib berish bozoriga talabning oshgani bilan izohlanadi.

Shuningdek, ulgurji savdo aylanmasi ham 12,2% o'sdi, bu chakana savdoga tovar yetkazib berish hajmining ortayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston kontekstida bir qancha o'ziga xos xususiyatlar mavjud:

Infratuzilma muammolari. Mintaqaviy savdo markazlari va zamonaviy omborlar yetishmasligi taqsimlash zanjirini uzaytiradi va xarajatlarni oshiradi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda faqat 50 foiz ombor xo'jaliklari zamonaviy standartlarga javob beradi.

Texnologik orqada qolish. Korporativ dasturiy ta'minot (WMS, TMS) joriy etilishi darajasi 15–20 foizni tashkil etadi, bu esa jahon o'rtacha ko'rsatkichidan ancha past. Bu real vaqt rejimida zaxiralarni kuzatish va marshrutlarni optimallashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

¹ Muallif ishlanmasi

² Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Kadrlar muammosi. Malakali logistika mutaxassislari yetishmasligi tizimni samarali boshqarishni qiyinlashtiradi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, logistika sohasida ish o'rinlarining 25–30 foiz bo'sh turadi.

Shu bilan birga, elektron tijoratning tez o'sishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash logistika sektorini modernizatsiyalash uchun qulay sharoit yaratmoqda.

O'zbekiston sharoitida quyidagi joriy etish strategiyalari tavsiya etiladi: asosiy shahar markazlarida zamonaviy tarqatish markazlarini yaratish, logistika jarayonlarini raqamlashtirish, yetkazib beruvchilar va do'konlar o'rtasida axborot almashinuvini joriy etish, mintaqaviy tarmoqni kengaytirish.

Raqamli texnologiyalarning ta'siri

WMS va TMS tizimlarini joriy etish quyidagi natijalarni beradi:

- ombor operatsiyalari samaradorligi 30–40% ga oshadi;
- zaxiralarni boshqarish aniqligi 95% ga yetadi;
- buyurtmalarni qayta ishlash vaqti 40–50% ga qisqaradi;
- xatolar 60–70% ga kamayadi.

IoT datchiklari va real vaqt kuzatuv tizimlari yetkazib berish shaffofligini ta'minlaydi va yo'qotishlar xavfini o'rtacha 50–60 foiz ga kamaytiradi. AI algoritmlari talabni prognozlash aniqligini o'rtacha 20–30 foiz ga oshiradi va ortiqcha zaxiralarni 25% ga kamaytiradi.

O'zbekiston chakana savdo tizimida faoliyat yuritayotgan korxonalarining tuzilishi tahlil qilinsa, jami 85585 ta chakana savdo subyekti mavjud bo'lib, shundan atigi 344 tasi yirik korxonalariga, qolgan 85241 tasi esa kichik va mikro biznes subyektlariga tegishli. Ushbu ma'lumotlar yetkazib berish tizimida moslashuvchan va turli logistika modellarini qo'llash zaruratini ko'rsatadi. Yirik korxonalar o'ziga xos markazlashgan yetkazib berish tizimini talab etsa, kichik va mikro korxonalar esa tezkor, kichik partiyalar bilan yetkazib berishni afzal ko'radi. Shu bois chakana savdo korxonalarining samarali ishlashi uchun logistika va ta'minot zanjirini segmentatsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Yetkazib berish samaradorligini o'lchash uchun global KPIlar ham qo'llanildi. Masalan, umumiy yetkazib berish vaqti taxminan 126 soatni tashkil etib, buyurtmadan yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonning uzluksizligini ko'rsatadi. Buyurtmalarni bajarish darajasi (fill rate- buyurtma bajarilish darajasi) 90,75 foiz ni tashkil qilib, tovarlarning savdo nuqtalariga o'z vaqtida yetkazilishini ko'rsatadi. Shuningdek, inventar aylanma koeffitsiyenti 8,33 bo'lib, bu ombordagi zaxiraning yil davomida qancha marta aylanib chiqqanini bildiradi. Ushbu indikatorlar O'zbekiston chakana savdo tizimida yetkazib berish samaradorligini o'lchashda muhim vosita hisoblanadi.

Raqamlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston chakana savdo tizimi o'sish sur'ati yuqori bo'lgani sababli logistika va yetkazib berish tizimi optimallashtirilmagan bo'lsa, savdo korxonalarida tovar tanqisligi, ortiqcha zaxira yoki yetkazib berish kechikishlari yuzaga kelishi mumkin. Shu bois zamonaviy ERP, WMS va SCM tizimlarini joriy etish, avtomatlashtirilgan ombor texnologiyalari, shtrix-kod va RFID texnologiyalarini qo'llash, shuningdek, transport monitoringi va "oxirgi mil" yetkazib

berishni optimallashtirish zarur. Ushbu yechimlar nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshiradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda chakana savdo tizimi ulgurji va chakana savdo aylanmasini muvofiqlashtirishga ham e'tibor qaratishi zarur. 2025-yilda ulgurji savdo aylanmasi 393 900 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 12,2% o'sdi [Stat, 2025]. Bu raqamlar yetkazib berish tizimini yanada takomillashtirish, ayniqsa, yirik korxonalaridan kichik va mikro biznesga bo'ladigan taqsimot jarayonlarini optimallashtirish zaruratini ko'rsatadi.

O'zbekiston chakana savdo tizimida tovarlarni yetkazib berishni tashkil etish va ularning texnologiyasini takomillashtirish bugungi kunda ilmiy va amaliy nuqtai nazardan dolzarb masala hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yetkazib berish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy logistika texnologiyalarini joriy etish, raqamli monitoring tizimlarini tatbiq etish va transport-logistika jarayonlarini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yetkazib berish jarayonini doimiy monitoring qilish va KPilar orqali baholab borish chakana savdo korxonalarining samarali ishlashini ta'minlaydi va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, chakana savdo logistikasi tez rivojlanayotgan va transformatsiya qilayotgan soha bo'lib, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Jahon bozori 2024–2033-yillarda yillik 12,4% o'sish sur'ati bilan rivojlanishi prognoz qilinmoqda, bu esa sezilarli investitsiyalar va modernizatsiyalashni talab qiladi.

O'zbekiston chakana savdo sektori ijobiy dinamikani ko'rsatsa-da, logistika samaradorligi xalqaro standartlardan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Logistika xarajatlari mahsulot narxining 45–48 foizni tashkil etadi, jahon bo'yicha esa bu ko'rsatkich o'rtacha 25–30% foizni tashkil etadi. Bu holat mahsulotlarning raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Asosiy muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi: zamonaviy infratuzilmaning yetishmasligi, texnologik rivojlanishning past darajasi, malakali kadrlar taqchilligi. Shu bilan birga, elektron tijoratning o'sishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash logistika sektorini modernizatsiyalash uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi O'zbekiston chakana savdo logistikasini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, xarajatlarni 25–30% ga kamaytirish, yetkazib berish tezligi va sifatini sezilarli yaxshilash hamda umumiy raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Joriy etish strategiyasi va davlat tomonidan muntazam qo'llab-quvvatlash logistika sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boysen, N. and De Koster, R. (2024) "Warehouses have evolved to technology-enriched fulfillment factories with strategic relevance", *International Journal of Physical Distribution & Logistics Management*, 55(11), pp. 1-23. doi: 10.1108/IJPDLM-2024-01234.

2. Gil-Saura, I., Ruiz-Molina, M.E. and Berenguer-Contrí, G. (2023) “Sustainable packaging logistics innovations enable competitive advantage in home-delivery”, *International Journal of Retail & Distribution Management*, 53(13), pp. 75-92. doi: 10.1108/IJRDM-2024-0567.

3. Kembro, J., Selviaridis, K. and Näslund, D. (2024) “A strategic perspective on automated warehouse systems in retail: insights from a multiple case study”, *International Journal of Physical Distribution & Logistics Management*, 55(11), pp. 57-89. doi: 10.1108/IJPDLM-2024-0234.

4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024) Chakana savdo aylanmasi statistikasi: 2024-yil 6 oylik natijalar. Toshkent: Stat.uz. Mavjud: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/operative-information/14003-chakana-savdo-va-bozor-xizmati>.

5. Statista (2024) E-commerce as percentage of total retail sales worldwide from 2021 to 2027. Available at: <https://www.statista.com/statistics/534123/e-commerce-share-of-retail-sales-worldwide/> (Accessed: 14 December 2024).

6. Straits Research (2024) Retail Logistics Market Size, Share and Growth Report, 2033. Available at: <https://straitsresearch.com/report/retail-logistics-market> (Accessed: 14 December 2024).

7. Usmonov, F. (2024) *Chakana savdo ta’minot zanjirini boshqarish*. Toshkent: Fan va texnologiya.

8. Xudoyberdiyev, J. (2021) *Savdo jarayonlari texnologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

9. Zhang, P. (2024) “A study on the location selection of logistics distribution centers based on e-commerce”, *Journal of Knowledge Learning and Science Technology*, 3(3), pp. 103-107. doi: 10.60087/jklst.vol3.n3.p103-107.

10. Бездеткин, А. (2024) “Логистика интернет-торговли: цифровизация и автоматизация”, в: *Data Insight: Логистика интернет-торговли России в 2023*. Data Insight, pp. 15-28. Mavjud: <https://www.retail.ru/news/data-insight-kak-razvivalas-logistika-onlayn-torgovli-v-rf-v-2023-godu/>

11. Мавлюдов, А. (2024) “Главные тренды развития российской логистики в 2024-25 годах”, СИТЕК Блог. Mavjud: <https://sitec-it.ru/blog/robot/glavnye-trendy-razvitiya-rossiyskoy-logistiki-v-2024-25-godakh/>.

12. Назаров, М. (2024) “Экономический кризис влияет на логистику: спрос на перевозки в Москве упал на 13,2%”, Кампус Портал. Mavjud: <https://kampus-portal.ru/novosti/ekonomicheskij-krizis-vliyaet-na-logistiku>.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**